

DAVLAT XARIDLARINING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti
“Xalqaro biznes huquqi” magistranti*

Rizaeva Soliha

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya
Universiteti kafedra professori, y.f.d.*

N.X. Rahmankulova

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda davlat xaridlarini rivojlanish bosqichlari va ularni tartibga solishning huquqiy asoslari yoritilgan. Davlat xaridlari tizimi 2000-yildan boshlab, klassik usullardan elektron auksionlar va kichik biznes subyektlarini jalb qilishga qaratilgan mexanizmlar orqali rivojlangan. 2018 va 2021-yillarda qabul qilingan “Davlat xaridlari to'g'risida”gi qonunlar, davlat xaridlarining ochiqqligi, raqobatbardoshligi va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va monitoring tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, huquqiy tartibga solish, raqobat, korrupsiyaga qarshi kurash, elektron platforma, islohotlar, qonunchilik, samaradorlik.

LEGAL REGULATION OF PUBLIC PROCUREMENT

Abstract: This article discusses the stages of development of public procurement in Uzbekistan and the legal foundations for regulating them. The public procurement system has evolved since 2000, transitioning from classical methods to mechanisms involving electronic auctions and the involvement of small business entities. The laws "On Public Procurement" adopted in 2018 and 2021 are focused on ensuring transparency, competitiveness, and efficiency in public procurement. Additionally, measures aimed at combating corruption, preventing conflicts of interest, and improving monitoring systems, along with their socio-economic significance, are analyzed.

Keywords: public procurement, legal regulation, competition, anti-corruption, electronic platform, reforms, legislation, efficiency.

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК

Аннотация: В статье рассматриваются этапы развития государственных закупок в Узбекистане и юридические основы их регулирования. Система

государственных закупок развивалась с 2000 года, переходя от классических методов к механизмам, включающим электронные аукционы и привлечение субъектов малого бизнеса. Принятые в 2018 и 2021 годах законы "О государственных закупках" направлены на обеспечение прозрачности, конкурентоспособности и эффективности государственных закупок. Кроме того, рассматриваются меры по борьбе с коррупцией, предотвращению конфликта интересов и совершенствованию систем мониторинга, а также их социально-экономическое значение.

Ключевые слова: государственные закупки, правовое регулирование, конкуренция, борьба с коррупцией, электронная платформа, реформы, законодательство, эффективность.

O'zbekistonda davlat xaridlarining huquqiy tartibga solinishi iqtisodiy barqarorlik va davlat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat xaridlari jarayoni davlatning ijtimoiy¹-iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va shaffoflikni ta'minlash orqali korrupsiyani kamaytirishga xizmat ko'rsatadi. Ushbu maqolada O'zbekistondagi davlat xaridlarining huquqiy tartibga solinishi, rivojlanish bosqichlari, uning ahamiyati va muammolari haqida tahlil qilinadi.

Davlat xaridlari - bu davlat yoki uning idoralari tomonidan tovarlar, ishlar yoki xizmatlar sotib olish jarayoni hisoblanadi. Ularning maqsadi xalq manfaatlarini himoya qilish, sifatli mahsulotlar taqdim etish va davlat resurslarini samarali boshqarishdan iborat.

Mamlakatimizda davlat xaridlari tizimini rivojlanishini shartli tarzda to'rt bosqichga ajratish mumkin²

Birinchi bosqich (2000-2011) davomida O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimi Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonun va "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining Qarori asosida shakllandi va rivojlandi.³ Ushbu hujjatlar asosida, davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish bo'yicha davlat kontrakti va shartnomalarining mohiyati, ularni tuzish va bajarish tartibi, shuningdek, tomonlarning majburiyatlari Fuqarolik kodeksida belgilandi.

¹ O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni. <https://www.google.com/search?client=safari&rls=en&q=O%E2%80%98zbekiston+Respublikasining+22.04.2021+yilda+gi+%E2%80%9CDavlat+xaridlari+to%E2%80%98g%E2%80%98risida%E2%80%9Dgi+O%E2%80%98RQ-684-son+Qonuni.&ie=UTF-8&oe=UTF-8>

² O'roqov U.Yu. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma.T.:«Nihol print» OK, 2022. 200 b.

³ Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom

“Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonun esa xo‘jalik subyektlari o‘rtasida shartnomalar tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish jarayonlarini tartibga soladi. Ushbu qonun xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquq va majburiyatlarini, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlarining shartnoma munosabatlaridagi vakolatlarini belgilaydi.

Ikkinchi bosqich (2011-2018): Davlat xaridi tizimining rivojlanishining ikkinchi bosqichi (2011 yildan 2017 yilgacha) xalqaro tajribadan kelib chiqib, xaridlar tizimini ochiq va shaffof qilish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini keng jalb etish orqali raqobatni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu davrda davlat xaridlari sohasidagi qonunchilikni xususiy va davlat sektori ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirish zarurati paydo bo'ldi. Shuningdek, yangi davlat xaridlari turlarini joriy etish va mavjudlarini takomillashtirish talabi tug'ildi. Bu sharoitda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi,⁴ bu esa davlat xaridlari rivojlanishining ikkinchi bosqichini boshladi.

Davlat xaridlari tizimining rivojlanishidagi uchinchi bosqich 2018-yil 9-apreldan 2021-yil 21-aprelgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.⁵ Avval ta’kidlab o‘tilganidek, bu davrgacha mamlakatimizda davlat xaridlarini tartibga solishda 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar amal qilgan bo‘lib⁶, yagona va uzviy tizim mavjud emas edi. Natijada, ayrim hollarda huquqiy ziddiyatlarga olib keluvchi normalar uchragan, ba’zi tartiblar esa takroriyligi sababli korrupsiya xavfini oshirgan va ortiqcha vaqt sarflanishiga sabab bo‘lgan. Ana shu muammolarni bartaraf etish, davlat xaridlarini yagona va izchil huquqiy asosda tartibga solish hamda ularni amaliyotda bir xil qo‘llash maqsadida 2018-yil 9-aprelda “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.⁷ 12 bob va 79 moddadan iborat ushbu huquqiy hujjat davlat xaridlarining ochiqligi, shaffofligini ta'minlash, raqobat muhitini kuchaytirish va davlat mablag‘laridan oqilona foydalanishga sharoit yaratishga xizmat qilmoqda. Ushbu qonun davlat xaridlarini amalga oshirishda shaffoflik, raqobat va ochiqlikni ta'minlashga qaratilgan. Qonun doirasida quyidagi asosiy tamoyillar belgilangan:

- Ochiqlik va shaffoflik: Davlat xaridlari jarayonida barcha axborotlarni ochiq va shaffof tarzda taqdim etish.
- Raqobatbardoshlik: Yetkazib beruvchilarni tanlashda raqobatni kuchaytirish.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475-sonli Qarori.

⁵ Qodirov, A., & Turg‘unov, B. (2021). *Davlat xaridlari sohasidagi islohotlar va ularning huquqiy asoslari*. Huquq va jamiyat, 2(4), 45-52.

⁶ Karimov, M. (2020). *O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimi: muammolar va rivojlanish yo‘nalishlari*. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2018 yil 9 aprel, www.lex.uz

- Adolat: Barcha tadbirkorlar teng sharoitda ishtirok etishi kerak.
- Tejamkorlik va samaradorlik: Byudjet mablag'larini oqilona sarflash va xaridlar jarayoni resurslarni samarali ishlatishni ta'minlashi zarur.

Davlat xaridlari tizimining rivojlanishidagi to'rtinchi bosqichi 2021 yil 22 apreldan boshlanib, hozirgi davrgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi. Aynan shu kuni "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning yangilangan tahriri qabul qilindi. Mazkur huquqiy hujjatni ishlab chiqishda BMT Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (YUNSITRAL) tomonidan ishlab chiqilgan ommaviy xaridlar bo'yicha namunaviy qonunning asosiy prinsiplariga, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning tavsiyalariga hamda bir qator xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasiga tayanilgan.⁸ Ushbu Qonun mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi pozitsiyasini, xususan, OECDning Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul harakatlar rejasi va davlat moliyasini baholovchi PEFA tizimi doirasidagi ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Amaldagi qonunchilik tizimi. Yangi tahrirdagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun asosida sohaga bir qator muhim yangilik va o'zgartirishlar joriy etildi:

1. **Korporativ buyurtmachilar tizimi takomillashtirildi.** Davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan korxonalar, shuningdek, davlat korxonalari ulushi bilan birgalikda ushbu ko'rsatkich 50 foizdan oshgan yuridik shaxslar korporativ buyurtmachilar ro'yxatiga kiritildi. Ularning ro'yxati Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan hamkorlikda maxsus portalda yuritilishi belgilandi.
2. **Xarid tartib-taomillari soddalashtirildi.** Davlat buyurtmachilariga xarid usulini mustaqil tanlash imkoniyati yaratildi. Xaridlar turiga qarab elektron do'kon, auktsion yoki tanlov orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lib, xarid summalariga nisbatan aniq cheklovlar belgilandi. Shuningdek, e'lon qilish muddatlari qisqartirildi: tanlov – 5 ish kuni (+2 kun muhokama), tender – 12 ish kuni.
3. **Mas'uliyatni oshirish mexanizmlari takomillashtirildi.** Xarid komissiyasi tarkibiga majburiy a'zolar kiritish talabi bekor qilinib, faqat buyurtmachining vakillaridan iborat bo'lishi belgilandi.
4. Korrupsiyaning oldini olish va oshkoralikni ta'minlash maqsadida davlat xaridlari tizimiga bir qator muhim choralar joriy etildi:
 - Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi davlat xaridlarini nazorat qiluvchi tashkilotlar tarkibiga kiritildi.
 - Xarid jarayonlarida ishtirok etuvchi shaxs va u bilan aloqador (affillangan) shaxslarning bir savdoda qatnashishiga, shuningdek, xarid komissiyasi

⁸ O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni.

a'zolarining manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lsa ovoz berishiga yo'l qo'yilmasligi belgilandi.

- Hisob palatasi davlat xaridlarini tekshiradi va har yili o'z xulosalarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taqdim etadi hamda ularni ochiq manbalarda e'lon qiladi.
- Moliya vazirligi va boshqa tegishli idoralarga savdolar natijalari, qonunbuzarlik holatlari va tahliliy ma'lumotlarni ommaga ochiq tarzda e'lon qilib borish majburiyati yuklandi.
- Davlat xaridlarining barcha bosqichlarini (rejalashtirish, xarid jarayoni, shartnoma tuzish, monitoring va nazorat) o'z ichiga oluvchi yagona elektron platforma orqali amalga oshirish tizimlashtirildi.
- Shu bilan birga, tizimni yanada takomillashtirish, tadbirkorlarni faolroq jalb qilish, hamda oshkoralik va shaffoflikni kuchaytirishga qaratilgan boshqa muhim islohotlar ham ko'zda tutilgan.

Ushbu o'zgarishlar davlat xaridlari tizimining yanada ochiqligini, raqobatbardoshligini va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda davlat xaridlarining huquqiy tartibga solinishi bo'yicha olib borilgan islohotlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, davlat mablag'laridan oqilona foydalanish va korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlat xaridlari tizimi bosqichma-bosqich takomillashib, dastlab klassik usullardan boshlanib, zamonaviy elektron platformalar asosidagi shaffof va raqobatbardosh tizimga aylangan. Ayniqsa, 2018-yil va 2021-yillarda qabul qilingan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunlar sohaga huquqiy izchillik, aniqlik va oshkoralik olib kirib, xalqaro standartlarga mos mexanizmlarni joriy etishga xizmat qildi. Bugungi kunda davlat xaridlarining barcha bosqichlari yagona elektron platformada amalga oshirilayotgani, manfaatlar to'qnashuvining oldi olinayotgani va nazorat organlari faoliyatining kuchaytirilgani tizimning samaradorligi va ishonchliligini oshirmoqda. Bularning barchasi davlat xaridlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.⁹ Shu bois, davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish, ochiqlik va raqobatni mustahkamlashga doimiy e'tibor qaratilishi lozim.¹⁰

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni

⁹ U.Y.O'roqov, M.B.Moyliyev. *Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali xalqaro kapitalni jalb qilish masalalari*. Science and Education, 2022. https://scholar.google.com/scholar_lookup?title=Mamlakat+investitsiya+jozibadorligini+oshirish+orqali+xalqaro+kapitalni+jalb+qilish+masalalari

¹⁰ Qodirov, A., & Turg'unov, B. (2021). *Davlat xaridlari sohasidagi islohotlar va ularning huquqiy asoslari*. Huquq va jamiyat, 2(4), 45-52.

2. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom
3. O‘roqov U.Y. Davlat xaridi. O‘quv qo‘llanma.T.:«Nihol print» OK, 2022. 200b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475- sonli “Davlat xaridlari tizimini makbullanish va unga kichik biznes sub’ektlarini jalb etishni kengaytirish to‘g‘risida”gi Qarori
6. U.Y.O‘roqov, M.B.Moyliyev. Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali xalqaro kapitalni jalb qilish masalalari. Science and Education, 2022
7. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2018 yil 9 aprel, www.lex.uz
8. Qodirov, A., & Turg‘unov, B. (2021). *Davlat xaridlari sohasidagi islohotlar va ularning huquqiy asoslari*. Huquq va jamiyat, 2(4), 45-52.
9. Karimov, M. (2020). *O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimi: muammolar va rivojlanish yo‘nalishlari*. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti.